



MUNDARIJA

1. ATAMALAR	2
2. SHARTNOMA PREDMETI.....	2
3. GAROV PREDMETI	3
4. SHAHODATLASH VA TASDIQLASH	4
5. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.....	4
6. UNDIRUVNI GAROVGA QO'YILGAN MOL-MULKKA QARATISH TARTIBI	7
7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI	7
8. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR.....	8
9. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI	8
10. NAVBATDAGI GAROV, GAROV PREDMETINI ALMASHTIRISH VA BOSHQA SHARTLAR	8
11. GAROVGA QO'YISH UCHUN ROZILIK	9
12. YAKUNLOVCHI QOIDALAR	9
13. TARAFLARNING IMZOSI:	10
A R I Z A	11



**Birlamchi bozorda bank krediti hisobiga sotib olingan avtotransport
vositasi garovi shartnomasi
(mulkni garovga qo'yuvchida qoldirgan holda)
20__/__/__-son (yil/tartib raqami)**

_____ sh.

“ _____ ” _____ 20__ yil

O'zbekiston Respublikasi, _____ shahar / viloyat, _____ shahar / tuman.
_____ (sana so'z bilan)

Biz, quyida imzo chekuvchilar:

"Orient Finans" XATB (keyingi o'rinlarda "**Garovga oluvchi**"), STIR: _____,
nomidan va 20 __yil _____dagi _____-sonli ishonchnomaga asosan
faoliyat yurituvchi _____ Amaliyot boshqarmasi / BXM / BXO
Boshqaruvchisi/Boshlig'i (_F.I.Sh. _),

_(F.I.Sh.) _, **JShShIR:** _____
_____, (keyingi o'rinlarda "**Garovga qo'yuvchi**"), boshqa tomondan, birgalikda "Taraflar
quyidagi Birlamchi bozorda bank krediti hisobiga sotib olingan avtotransport vositasi
garovi to'g'risida"gi shartnomani (keying o'rinlarda "**Shartnoma**") quyidagilar
to'g'risida tuzdilar:

1. ATAMALAR

1.1. Bazaviy garov qiymati (BGQ) — bu garov predmeti dastlab garovga
taqdim etiladigan/qabul qilinadigan vaqtda kelishilgan qiymatdir.

Tuzatish koeffitsienti - bu Garov obyekti uchun Yakuniy garov qiymatini (YGQ)
hisoblashda qo'llaniladigan chegirmaning (diskontning) belgilangan foizidir. Tuzatish
koeffitsienti qat'iy ravishda Bazaviy garov qiymatidan (BGQ) hisoblanadi (murakkab
foiz qo'llanilmaydi va oldingi davrlardagi oraliq/qoldiq qiymatdan qayta hisob-kitob
qilinmaydi).

Yakuniy garov qiymati (YGQ) - bu BGQga nisbatan tuzatish koeffitsientini
qo'llagan holda hamda eskirish darajasini hisobga olib, taraflar o'rtasida kelishilgan
qiymat bo'lib, ushbu qiymat bo'yicha Garov predmeti kimoshdi (auksion) savdolariga
qo'yiladi yoki auksion savdolarida sotilmay qolgan Garov predmetini bank foydasiga
topshirilayotgan paytda sud ijrochisi tomonidan diskontlash (chegirma) qo'llaniladi.
Tuzatish koeffitsientini qo'llash uchun tegishli holat (voqelik) yuzaga kelishi zarur.

2. ShARTNOMA PREDMETI

2.1. Mazkur shartnoma bo'yicha **Garovga qo'yuvchi Garovga oluvchiga**
o'zaro tuzilgan _____dagi _____-sonli _____ Kredit shartnomasi
bo'yicha majburiyatlarning (keyingi o'rinlarda "**Asosiy majburiyat/Kredit
shartnomasi**") bajarilishini ta'minlash maqsadida, mol-mulkni (keyingi o'rinlarda
"**Garov narsasi**") garovga beradi.

2.2. Garovga qo'yuvchi Asosiy majburiyat bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan
yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatidan
Garovga qo'yuvchining boshqa kreditorlariga qaraganda imtiyozli suratda
qanoatlantirilishiga haqli bo'ladi.

2.3. Shartnoma bo'yicha garov quyidagi shartlarda tuzilgan Asosiy
majburiyatning bajarilishini ta'minlaydi:

- 2.3.1. Asosiy qarz summasi: _____ (_____) so'm;
2.3.2. Kredit muddati: _____ oy;
2.3.3. Kredit maqsadi: _____;
2.3.4. Foiz stavkasi: yillik _____ %;
2.3.5. Vositachilik haqi va boshqa to'lovlar summasi: _____;
2.3.6. Muddati o'tgan summa bo'yicha foiz stavkasi: yillik _____ %;
2.3.7. Kredit bo'yicha asosiy qarz va u bo'yicha hisoblangan foizlarni qaytarish muddati va tartibi Kredit shartnomasining ajralmas qismi hisoblanmish To'lov jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.
2.3.8. Vositachilik haqi va boshqa to'lovlar amalga oshirish muddati va tartibi Kredit shartnomasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3. GAROV PREDMETI

3.1. Garov predmetining ro'yxati va tavsifi:

Transport vositasi modeli		Kuzov raqami	
Ishlab chiqarilgan yili		Dvigatel raqami	
Bosib o'tgan yo'l		Texpasport raqami va sanasi	
Rangi		Shassi raqami	
Kuzov turi		Oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha transport vositasi narxi	
Garov predmeti BGQ _____ (_____) so'mni tashkil etadi			

3.2. Garovga qo'yilgan obyekt Garovga qo'yuvchiga (_____)dagi _____-son shartnoma, order, qaror yoki boshqa huquqni belgilovchi hujjat – **keraklisi ko'rsatilsin**) asosida mulk huquqi asosida tegishlidir.

3.3. Garov huquqi Garov predmeti ashyolari va ajralmas qismlariga nisbatan tatbiq etiladi.

3.4. Garov predmeti Garovga oluvchi va Garovga qo'yuvchi tomonidan imzolangan _____ yildagi _____-sonli Garov predmeti qiymatini kelishish dalolatnomasi asosida quyidagi tartibda va qiymatda Asosiy majburiyat bo'yicha ta'minot sifatida qabul qilinadi:

Garovning yakuniy qiymati (YGQ) bankning da'vo talablarini qanoatlantirish va qarzдорlikning to'liq summasini undirish to'g'risidagi birinchi instansiya sudining qarori yoki hakamlik sudining qarori, yoxud sud buyrug'i chiqarilgan kunda yoki qarzдорlik summasini undirish to'g'risida notariusning ijro xati olingan kunda belgilanadi (fiksatsiya qilinadi).

Yakuniy garov qiymati quyida ko'rsatilgan jadvalga muvofiq belgilanadi:

№	Tuzatish koeffitsient	YGQ	Holat (voqelik) *
1.	-10% ot BGQ		1.Holat: _____ y. sananing kelishi (kredit shartnoma sanasidan 15 kalendar kunidan keyin);
2.	-20% ot BGQ '		1.Holat: _____ y. sananing kelishi (kredit shartnoma bo'yicha 13 oy boshlanishi); 2.Holat: Bosib o'tgan yo'l - 20 000 km.
3.	-30% ot BGQ		1. Holat: _____ y. sananing kelishi (kredit shartnoma bo'yicha 25 oy boshlanishi); 2. Holat: Bosib o'tgan yo'l - 30 000 km.
4.	-40% ot BGQ		1. Holat: _____ y. sananing kelishi (kredit shartnoma bo'yicha 36 oy boshlanishi); 2. Holat: Bosib o'tgan yo'l - 50 000 km.
5.	-50% ot BGQ		1. Holat: _____ y. sananing kelishi (kredit shartnoma bo'yicha 48 oy boshlanishi);

			2. Holat: Bosib o'tgan yo'l - 50 000 km va undan yuqori.
--	--	--	--

3.5. Bunda tegishli tuzatish koeffitsientini qo'llash uchun yuqorida ko'rsatilgan jadvaldagi holatlardan birining yuzaga kelishi kifoya qiladi. Garov predmetining garov qiymati deganda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan qoidalarni inobatga olgan holda, ushbu garov predmeti garovga taqdim etiladigan/qabul qilinadigan qiymat tushuniladi.

3.6. Garov majburiyatni haqiqatda qanoatlantirish paytidagi hajmda Garovga oluvchining Asosiy majburiyat bo'yicha talabini, shu jumladan foizlar, neustoyka, ijro muddatini kechiktirish sababli etkazilgan zararlar, shuningdek undiruv bo'yicha xarajatlar qoplanishini ta'minlaydi. Garovga oluvchi mazkur shartnoma shartlariga muvofiq yoki garovga qo'yilgan mol-mulk but saqlanishini ta'minlash zarurati tufayli uni saqlash va/yoki qo'riqlash yoxud Garovga qo'yuvchining ushbu mol-mulk bilan bog'liq soliqlar, yig'imlar yoki boshqa to'lovlar bo'yicha qarzini qoplash xarajatlarini amalga oshirishga majbur bo'lgan hollarda Garovga oluvchining bunday zaruriy xarajatlarini qoplash garovga qo'yilgan mol-mulk hisobidan ta'minlanadi.

3.7. Garov predmeti _____ sug'urta kompaniyasi tomonidan _____ yildagi _____-son sug'urta shartnomasi asosida _____ (_____) so'mlik qiymatga, _____ yilgacha bo'lgan muddatga sug'urtalangan.

4. SHAHODATLASH VA TASDIQLASH

4.1. Taraflar mazkur shartnomaning barcha shartlarini o'zaro kelishilganini va ularning manfaatlari va huquqlari cheklanmaganligini tasdiqlaydilar. Mazkur shartnoma ixtiyoriy va ongli ravishda imzolangan, uning huquqiy oqibatlari ma'lum va tushunarli, shartnoma matni bilan tanishib chiqilgan, ma'nosi ayon, mazkur shartnoma bayon etilgan tilga e'tirozlari yo'q, tomonlarning shartnomani imzolashi buni tasdiqlaydi. Bunda tomonlar va shartnomani imzolayotgan shaxslar buning uchun barcha tegishli vakolatlarga ega ekanliklarini bir-birlariga ma'lum qiladilar.

4.2. Garovga qo'yuvchi Garov predmeti unga mulk huquqida tegishli ekanini va mazkur shartnoma imzolangan paytda hech kimga sotilmaganini, garovga qo'yilmaganini va taqiq ostida emasligini, qarzlardan xoli ekanini va qandaydir uchinchi shaxslarning Garov narsasiga talab qo'yish huquqi mavjud emasligini tasdiqlaydi.

4.3. Garov beruvchi quyidagilar haqida ogohlantirilganligini tasdiqlaydi:

4.3.1. Garov predmetini yashirish, uning joylashgan yeri haqida yolg'on ma'lumotlar taqdim etish, Garov predmetini ko'zdan kechirish, baholash yoki unga undiruvni qaratishda Garov beruvchi (Zayom oluvchi) tomonidan har qanday shaklda to'sqinlik qilish yoki qarshilik ko'rsatish Taraflar tomonidan Garov beruvchining (Zayom oluvchining) insofsiz va noqonuniy xatti-harakati deb e'tirof etiladi.

4.3.2. Garov beruvchi (Zayom oluvchi) tomonidan ushbu harakatlarning sodir etilishi Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 168-moddasi (Firibgarlik) va 233-moddasida (Arest qo'yilgan yoki ro'yxatga olingan mol-mulkni qonunga xilof ravishda tasarruf etish) nazarda tutilgan jinoyatlarni sodir etish deb baholanadi hamda shunday deb e'tirof etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

5. TARAFALARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Garovga qo'yuvchi quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Garov predmetidan uning maqsadiga ko'ra foydalanish, shu jumladan undan daromad olish;

5.1.2. Faqat Garovga oluvchining yozma ruxsati mavjud bo'lganda Garov predmetini o'tkazish, uni boshqa shaxsga ijaraga yoki bepul foydalanishga yoxud boshqacha tarzda tasarruf etish uchun berish, shuningdek Garov predmeti tarkibiga qandaydir o'zgartirishlar kiritish;

5.1.3. Mazkur shartnomaga muvofiq undiruv qaratilgan Garov predmeti sotilguniga qadar istalgan paytda garov bilan ta'minlangan Asosiy majburiyatni yoki bajarish muddati o'tgan qismini bajarib, undiruv unga qaratilishini to'xtatish.

5.1.4. Garov bilan ta'minlangan Asosiy majburiyatni muddatidan oldin bajarish;

5.1.5. Garovga oluvchining roziligi bilan Garov predmetini almashtirish;

5.1.6. Garovga oluvchining roziligi bilan garov bilan ta'minlangan Asosiy majburiyat bo'yicha qarzni boshqa shaxsga o'tkazish;

5.1.7. Majburiyat bajarilguniga qadar Garov predmetini teng baholi ta'minotga almashtirish yoxud qonunchilikda belgilangan tartibda kafolat, sug'urta, boshqa mol-mulk garovi, shu jumladan uchinchi shaxslar mol-mulkining garovga berish.

5.2. Garovga oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

5.2.1. Garov predmeti haqiqatda mavjudligi, soni, ahvoli va saqlash sharoitlarini, uni asrab turish va undan foydalanish sharoitlarini hujjatlar bo'yicha va joyida tekshirish, shuningdek Garovga qo'yuvchidan Garov predmetini saqlab va asrab turish bo'yicha tegishli choralar ko'rishni talab qilish;

5.2.2. Garovga qo'yuvchidan Garov predmetini sug'urtalash majburiyatlarini bajarishni, Garov predmetini, shu jumladan uchinchi shaxslarning tajovuzlari va talablaridan himoya qilish uchun uning but saqlanishini ta'minlash maqsadida zarur choralar ko'rishni talab qilish;

5.2.3. Garovga qo'yuvchi Garov predmetini sug'urtalash bo'yicha majburiyatlarni buzgan taqdirda, Garov predmetini o'z hisobidan, biroq Garovga qo'yuvchining manfaatlarini ko'zlab, sug'urtalash xarajatlarini undan undirgan holda sug'urtalash;

5.2.4. Kim tomonidan bo'lmasin, garovga qo'yilgan mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishi xatarini tug'diruvchi tajovuzlarni to'xtatishini talab qilish;

5.2.5. Garov predmetining joriy bozor qiymatini belgilash maqsadida Garovga qo'yuvchining talablarini qanoatlantiruvchi mustaqil baholovchi kompaniyani jalb etgan holda Garov predmeti mustaqil baholanishini Garovga qo'yuvchidan talab qilish;

5.2.6. Garov predmeti kimning foydasiga sug'urtalanganidan qat'i nazar, uning yo'qotilgani va shikastlangani uchun sug'urta qoplamidan Asosiy majburiyat bo'yicha o'z talabini o'sha asosda qanoatlantirish;

5.2.7. Asosiy majburiyatning bir qismini bajarganda garovga qo'yilgan butun mol-mulkka bo'lgan huquqni saqlab qolish;

5.2.8. Asosiy majburiyat bo'yicha asosiy qarzni yoki hisoblangan foizlarni, shuningdek boshqa to'lovlarni to'lash muddati *15 kundan* ortiq muddatga bir marta kechiktirilgan taqdirda undiruvni Garov predmetiga qaratish;

5.2.9. Qonun hujjatlarida va Kredit shartnomasida nazarda tutilgan hollarda, shuningdek Garovga qo'yuvchi Garov predmetidan foydalanish va uni asrab turish, but saqlash, sug'urtalash bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganda, shuningdek garovga qo'yilgan mol-mulkning ahvolini tekshirishga asossiz rad javobi berganda, Asosiy majburiyatni muddatidan oldin bajarishni talab qilish va undiruvni Garov predmetiga qaratish;

5.2.10. Garovga qo'yuvchining Garov predmetiga bo'lgan egalik huquqi bekor bo'lgan taqdirda Garovga qo'yuvchiga qoplab beriladigan summadan o'z talabini ustuvor tartibda qanoatlantirish;

5.2.11. Garovga qo'yilgan mol-mulk bozor qiymati pasayishi oqibatida garovning etarililigini (kredit summasining 125%) ta'minlamagan taqdirda, qo'shimcha ta'minotni talab qilish.

5.3. Garovga qo'yuvchi quyidagi majburiyatlarni zimmasiga oladi:

5.3.1. Garovga oluvchida garov bilan ta'minlangan majburiyatni muddatidan oldin bajarish va undiruvni Garov predmetiga qaratishni talab qilish huquqi yuzaga kelganda uning talablarini qanoatlantirish;

5.3.2. Garov predmeti tasodifan nobud bo'lishi yoki tasodifan shikastlanishi

xatarini zimmasiga olish;

5.3.3. Garov predmetini ishlab chiqarishdagi sanitariya va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etgan holda lozim holatda saqlash, uning qiymati pasayishiga va sezilarli zarar ko'rishga sababchi bo'ladigan buzilishi va yomonlashishiga yo'l qo'ymaslik, Garov predmeti but saqlanishini ta'minlash uchun hamda uni uchinchi shaxslarning tajovuz va talablaridan himoya qilish uchun zarur bo'lgan boshqa choralarni ko'rish;

5.3.4. Garov predmetini sug'urtalash to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yo'qotish va shikastlanishiga oid barcha xatarlardan, shu jumladan davlat boshqaruvi organlari sodir etgan xatti-harakatlar va Garovga qo'yuvchining xo'jalik faoliyatini to'xtatadigan yoxud unga to'sqinlik qiladigan yoki unga salbiy ta'sir ko'rsatadigan hujjatlarni qabul qilishi (mol-mulkni musodara, rekvizitsiya qilish) natijasida Garov predmetiga zarar etkazilishidan o'z hisobidan uning to'liq summasiga sug'urtalash;

5.3.5. Garovga oluvchini Garov predmetining yo'qotilishi yoki shikastlanishi xatari yuzaga kelgani haqida zudlik bilan xabardor qilish;

5.3.6. Garov predmeti Garovga oluvchining aybi bilan yo'qotilmagan bo'lsa, Garov predmetini tiklash yoki Garovga oluvchining roziligi bilan uni teng qiymatli boshqa predmetga almashtirish;

5.3.7. Garov predmetiga o'z huquqi (e'tirozi)ni bildirayotgan shaxslar bilan garov predmeti bilan bog'liq sudda ko'rilayotgan nizolar va boshqa nizolar yuzaga kelgan taqdirda, bu haqda Garovga oluvchiga zudlik bilan ma'lum qilish;

5.3.8. Garovga oluvchining talabiga ko'ra unga Garov predmetining ahvoli, but saqlanayotganligi, talab etiladigan saqlash sharoitlariga muvofiqligining hujjatli tasdig'ini taqdim etish, shuningdek Garovga oluvchining vakolatli vakillarini Garov predmeti mavjudligi, but saqlanayotganligini va uni saqlash sharoitlarini tekshirish maqsadida u joylashgan joyga kiritish;

5.3.9. Garov predmetining yo'qotilishi, to'liq yoki qisman shikastlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'z hisobidan barcha zaruriy va o'ziga bog'liq bo'lgan choralarni, shuningdek Garov predmetini uchinchi shaxslarning talablaridan himoya qilish choralarni ko'rish;

5.3.10. Garov narsasiga oid barcha zarur hujjatlarni taqdim etish, Garovga oluvchi tomonidan vakolat berilgan baholovchi kompaniyaning mustaqil ekspertlariga Garov predmetining bozor qiymatini belgilash uchun baholash maqsadida uni ko'zdan kechirishlariga imkon berish (kiritish);

5.3.11. Garov predmeti nobud bo'lgan taqdirda 5 (besh) kun ichida xuddi shu qiymatdagi mulkni garovga berish berish yoki Asosiy majburiyat bo'yicha o'z majburiyatlarini muddatidan oldin bajarish;

5.3.12. Garovga oluvchining birinchi talabiga ko'ra Garovga oluvchining xarajatlarini (so'mdagi va erkin almashtiriladigan valyutadagi), shu jumladan Garovga oluvchining mazkur shartnoma bo'yicha huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan yoki undan kelib chiqadigan kelgusi xarajatlarini, shuningdek bojlar, yig'imlar, maslahatchilarning, birjaniy (savdo palatasining va h.k.) xizmatlariga to'langan haqni to'liq qoplab berish, bunda sanab o'tilganlar bilan cheklanilmaydi. Yuqorida ko'rsatilgan xarajatlarni qoplash/so'ndirish uchun uchun Garovga qo'yuvchi o'zining hisobraqamlaridagi mablag'larni so'zsiz mustaqil ravishda (uning farmoyishsiz va rozilgisiz) hisobdan chiqarish huquqini Garovga oluvchiga beradi;

5.3.13. Garovga oluvchining birinchi talabiga ko'ra bunday talab qo'yilgan kundan boshlab 20 (yigirma) kun ichida Garov ob'ektining bozor qiymatini belgilash maqsadida mustaqil baholovchi kompaniyani jalb etgan holda Garov predmetini o'z hisobidan mustaqil baholash.

5.4. Garovga qo'yuvchi quyidagilar taqiqlanadi:

5.4.1. Shartnoma predmetidan tijorat maqsadlarida foydalanish;

5.4.2. Shartnoma predmeti narxi tushishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan talofat yoki shikast yetkazish (buzish).

5.4.3. Shartnoma predmetini begonalashtirish, uni boshqa shaxsga tekin foydalanish uchun berish yoki Garovga oluvchining rozilgisiz boshqa yo'l bilan tasarruf etish.

5.5. Garovga oluvchi quyidagilarni amalga oshirishi shart:

5.5.1. Garovga qo'yilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan olingan summa garov bilan ta'minlangan talabi miqdoridan oshgan taqdirda, Garovga qo'yuvchiga farqni qaytarish.

5.5.2. Qarzdor tomonidan garov bilan ta'minlangan Asosiy majburiyat to'liq va lozim darajada bajarilgandan so'ng 3 (uch) kun muddat ichida garovga olingan mulkga qo'yilgan taqiqni echish va garovdag mulkka nisbatan garov reestrtdagi huquqidan (talabidan) ozod etish.

6. UNDIRUVNI GAROVGA QO'YILGAN MOL-MULKKA QARATISH TARTIBI

6.1. Undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish Garovga oluvchining talabiga ko'ra amaldagi qonun hujjatlari va Kredit shartnomasida nazarda tutilgan hollarda O'zbekiston respublikasi Fuqarolik kodeksi **280-moddasi 3-qismiga** muvofiq sudga murojaat qilmasdan amalga oshiriladi.

6.2. Undiruv ta'minot predmeti (usuliga)ga qaratilganda, Garovga oluvchi o'z xohishiga ko'ra birinchi navbatdagi undiruv/ta'minot ob'ektini bir tomonlama tartibda tanlash huquqiga ega bo'ladi. Undiruvning ta'minot ob'ektlaridan biriga va/yoki uning bir qismiga qaratilishi Garovga oluvchining undiruvni boshqa ta'minot ob'ektiga va/yoki uning bir qismiga qaratishini cheklamaydi.

7. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

7.1. Agar, Shartnomani bajarish bilan bog'liq barcha nizo va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan ko'rib chiqish va hal qilish imkoni bo'lmasa barcha nizo, kelishmovchiliklar yoki talablar ushbu Shartnoma yoki uni tuzish, o'zgartirish kiritish, ijro etish, buzish, tugatish, muddatidan oldin tugatish va amal qilishi bilan bog'liq holatlarni hal qilish quyida keltirib o'tilgan shaklda amalga oshiriladi:

7.1.1. Bankning kredit ajratgan _____ (Amaliyot boshqarmasi, filiali, BXM va BXO) joylashgan hududdagi tegishli (shahar/tuman) sudida ko'rib chiqiladi.

7.1.2. Yoki O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi qoshidagi Hakamlik sudida uning reglamentiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi qoshidagi Hakamlik sudining raisi tomonidan tayinlanadigan tarkibi bitta sudyadan iborat bo'ladi. Hakamlik sudining qarori tomonlar uchun yakuniy deb hisoblanadi.

7.1.3. Yoki "DS Legal Centre" MChJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudida. Nizolar "DS Legal Centre" MChJ huzuridagi doimiy faoliyat yurituvchi hakamlik sudi tomonidan ko'rib chiqilgan taqdirda, sud ishi sudning sudyasi Haydarov Jahonbek Jovliyevich tomonidan yakka tartibda ushbu "DS Legal Centre" MChJ Hakamlik sudining Qoidalariga muvofiq hal qilinadi.

7.2. Qonunda yoki ushbu Shartnomada nazarda tutilgan asoslar yuzaga kelgan hollarda, Taraflar ushbu bilan so'zsiz va qaytarib bo'lmaydigan tarzda o'zlari uchun quyidagilarni tasdiqlaydilar va o'rnatadilar:

7.2.1. Shartnoma bo'yicha Qarz oluvchi / Birga qarz oluvchining majburiyatlarini bajarilishini ta'minoti bo'lgan (garovga turgan) ko'char mulkka undiruv qaratish haqidagi Bank talabi amaldagi qonunchilikka binoan sud buyrug'i berish tartibida ko'rib chiqiladi;

7.2.2. Bank sud buyrug'ini berish to'g'risida ariza bilan o'rnatilgan tartibda tegishli sudga murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi;

7.2.3. Ushbu Shartnoma Bank tomonidan sud buyrug'ini berish to'g'risida ariza

bilan murojaat qilish va Bankning talabi sud buyrug'ini berish tartibida ko'rib chiqilishi haqidagi Taraflarning yozma bitim deb hisoblanadi.

7.3. Shartnomaning **7.1-7.2-bandlarida** qayd etib o'tilgan sudlardan biriga da'vo arizasini berishni tanlash huquqi Da'vogarda qoladi.

7.4. Nizolar yuzaga kelganda barcha bank yozuvlari va ko'chirmalari mazkur Shartnoma bo'yicha taraflarning majburiyatlarini isbotlovchi asosiy (**prima facie**) dalil deb hisoblanadi.

8. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

8.1. Taraflar mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida muayyan huquqqa zid afzalliklarga yoki boshqa nafga ega bo'lish maqsadida har qanday shaxslarga ularning xatti-harakatlari yoki qarorlariga ta'sir ko'rsatish uchun bevosita yoki bilvosita muayyan pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lamaydilar, to'lashni taklif etmaydilar, to'lashga ruxsat bermaydilar.

8.2. Taraflar mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida amaldagi qonun hujjatlarida pora berish/olish, tijoratda pora evaziga og'dirib olish/xizmatchini og'dirib olish deb malakalanadigan xatti-harakatlarni, shuningdek jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qo'llanilayotgan qonun hujjatlari va xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi xatti-harakatlarni amalga oshirmaydilar.

8.3. Mazkur shartnoma Taraflarning har biri boshqa tomonni (Bank xodimlarini) qandaydir usulda, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish, ular uchun ishlarni (xizmatlarni) tekinga bajarish, Bank xodimini muayyan darajada tobe qilib qo'yadigan, mazkur Bank xodimi uni rag'batlantiruvchi tomonning foydasiga muayyan xatti-harakatlarni amalga oshirishini ta'minlashga yo'naltirilgan boshqa usullar bilan rag'batlantirishdan bosh tortadi.

8.4. Bir tomonda korrupsiyaga qarshi muayyan shartlar buzilgani yoki buzilishi mumkinligi yuzasidan shubha tug'ilgan taqdirda, tegishli tomon boshqa tomonni yozma shaklda yoki ishonch telefoni orqali og'zaki shaklda xabardor qilish majburiyatini zimmasiga oladi.

9. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

9.1. Taraflar mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.2. Garovga qo'yilgan mol-mulk boshqa majburiyatlar bo'yicha Garov predmeti ekanligi aniqlanganda Garovga oluvchi Garov predmeti summasining *50 (ellik) foizi* miqdorida jarima solish huquqiga ega bo'ladi.

10. NAVBATDAGI GAROV, GAROV PREDMETINI ALMASHTIRISH VA BOSHQA SHARTLAR

10.1. "Notariat to'g'risida"gi qonunning **64-moddasiga** binoan Garovga oluvchi Garov narsasiga axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda Notariatning yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi ("Notarius" elektron tizimi) orqali taqiq qo'yadi va taqiqni echadi.

10.2. Mazkur shartnoma bo'yicha garovga qo'yilgan mol-mulk Garovga oluvchi oldidagi boshqa majburiyat bajarilishini ta'minlash uchun garovga berilgan hollardagina navbatdagi garovga berishga ruxsat etiladi.

10.3. Garov predmetini almashtirishga Garovga oluvchining yozma roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

10.4. Garov predmeti Garovga quyuvchida egalik qilish va foydalanishi uchun qoldiriladi.

10.6. Garov predmetini sotish va/yoki uni boshqacha tarzda tasarruf etish orqali begonalashtirish faqat Garovga oluvchining roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin, bunda sotishdan kelib tushadigan mablag'lar birinchi navbatda Asosiy majburiyat bo'yicha qarzni to'liq qoplashga yo'naltirilishi kerak. Mablag'larni qoplash uchun yo'naltirish sotishdan kelib tushgan kundan boshlab keyingi kun davomida amalga oshirilishi lozim.

(Agar Garovga qo'yuvchi nikohda bo'lsa mazkur bo'lim kiritiladi)

11.2. Garovga qo'yish uchun rozilik:

F.I.Sh. _____ (fuqaro o'z qo'li bilan to'ldiradi) _____ (imzo)

12.2. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar ikkala tomonning

yoзма roziligi bilan kiritilishi mumkin bo'lib, mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan mazkur shartnomaga ilovalar tarzida rasmiylashtiriladi.

12.3. Mazkur shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

12.4. Mazkur shartnomaga taalluqli har qanday bildirishnoma, iltimosnoma, talabnoma yoki boshqa xabarnoma yoзма shaklda taqdim etilgan va qonunchilik hujjatlarining amaldagi normalariga muvofiq rasmiylashtirilgan taqdirdagina haqiqiy hisoblanadi.

12.5. Mazkur shartnoma ikkala tomonning xohishiga ko'ra o'zbek tilida bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada, Garovga qo'yuvchi uchun va Garovga oluvchi uchun bittadan tuzildi.

13. TARAFLARNING IMZOSI:

Garovga qo'yuvchi: _____.

Garovga oluvchi: _____.

Shartnoma "Orient Finans" XATB _____ Amaliyot boshqarmasi/ BXM/ BXO binosida imzolandi.

Garovga oluvchining mas'ul xodimlari Garovga qo'yuvchi (va uning turmush o'rtog'i / rafiqasini) o'zlarining shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida identifikatsiyadan o'tkazdi. Garovga qo'yuvchi va uning turmush o'rtog'i / rafiqasining roziligi bilan ushbu Shartnomani imzolash jarayonini video va fotosuratga olindi.

"Orient Finans" XATB

Amaliyot boshqarmasi/ BXM/ BXO ga

_____ shaxar, _____ tumani,
_____ ko'chasi, _____-uyda
doimiy ro'yxatda turuvchi fuqaro
_____ Fuqaro __F.I.Sh. __dan

A R I Z A

Men, _____ yilda tug'ilgan _____,
(JShShIR: _____) ushbu ariza bilan
qonuniy nikoh tuzmaganligimni (turmush qurmaganligimni), birlamchi bozordan bank
kredit hisobiga sotib olingan va menga tegishli bo'lgan _____ yilda ishlab
chiqarilgan, _____ rusumli, T/V turi engil (Xetchbek), dvigatel № _____, kuzov
№ _____, shassi № _____, rangi
_____, davlat raqam belgisi _____, _____ ot
kuchiga ega bo'lgan bo'lgan avtomototransport vositasini sotilishiga, ijaraga
berilishiga, tekin foydalanishga topshirilishiga, garovga qo'yilishiga da'vo qiluvchi
turmush o'rtog'im yo'qligini tasdiqlayman.

Keyinchalik ushbu masala yuzasidan hech qanday moddiy va ma'naviy da'vo
va e'tirozlar qilmayman va bildirmayman. Mazkur arizani matnini o'qidim va mazmunini
to'liq tushundim, uning matni mening maqsadimga mos keladi.

IMZO: _____ /Arizachining F.I.Sh. to'liq/

SANA: _____ /raqam va so'z bilan/



**AVTOTRANSPORT VOSITASINING GAROV QIYMATINI KELISHISH TO'G'RISIDAGI
_____ -SONLI DALOLATNOMA**

Toshkent sh.

XX.XX.XXXX y

1-taraf: Kreditor/Garovga oluvchi – «Orient Finans» XATB nomidan «_____» BXM boshqaruvchisi _____ timsolida,

2-taraf: Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi – _____ taraflar o'rtasida 2-tarafga tegishli bo'lgan hamda XX.XX.XXXX yildagi _____-sonli kredit shartnomasi (keyingi o'rinlarda — SHartnoma) bo'yicha ta'minot sifatida taqdim etilayotgan mol-mulkning (keyingi o'rinlarda — Garov predmeti) garov qiymatini kelishish masalasi bo'yicha muzokaralar o'tkazildi.

Garovning bazaviy qiymatini va garovning yakuniy qiymatini aniqlash tartibi kelishib olindi.

Bazaviy garov qiymati (BGQ) — bu garov predmeti dastlab garovga taqdim etiladigan/qabul qilinadigan vaqtda kelishilgan qiymatdir.

Tuzatish koeffisienti - bu Garov obyekti uchun Yakuniy garov qiymatini (YGQ) hisoblashda qo'llaniladigan chegirmaning (diskontning) belgilangan foizidir. Tuzatish koeffitsienti **qat'iy ravishda Bazaviy garov qiymatidan (BGQ)** hisoblanadi (murakkab foiz qo'llanilmaydi va oldingi davrlardagi oraliq/qoldiq qiymatdan qayta hisob-kitob qilinmaydi).

Yakuniy Garov qiymati (YGQ) - bu BGQga nisbatan tuzatish koeffisientini qo'llagan holda hamda eskirish darajasini hisobga olib, taraflar o'rtasida kelishilgan qiymat bo'lib, ushbu qiymat bo'yicha Garov predmeti kimoshdi (auksion) savdolariga qo'yiladi yoki auksion savdolarida sotilmay qolgan Garov predmetini bank foydasiga topshirilayotgan paytda sud ijrochisi tomonidan diskontlash (chegirma) qo'llaniladi. Tuzatish koeffisientini qo'llash uchun tegishli holat (voqelik) yuzaga kelishi zarur.

Garov predmeti sifatida 2-tarafga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan _____ avtotransport vositasi (TS) hisoblanadi.

Taraflar ushbu bilan kredit shartnomasi shartlariga muvofiq 2-taraf 1-taraf foydasiga quyida ko'rsatilgan Garov predmetini garovga taqdim etishiga kelishib oldilar:

TS modeli		Kuzov raqami	
Ishlab chiqarilgan yili		Dvigatel raqami	
Bosib o'tgan yo'l		Texasport raqami va sanasi	
Rangi		SHassi raqami	
Kuzov turi		Oldi-sotdi artnomasi bo'yicha TS narhi	
Garov predmeti BGQ _____ (_____) sumni tashkil etadi			

Garovning yakuniy qiymati (YGQ) bankning da'vo talablarini qanoatlantirish va qarzdorlikning to'liq summasini undirish to'g'risidagi birinchi instansiya sudining qarori yoki hakamlik sudining qarori, yoxud sud buyrug'i chiqarilgan kunda yoki qarzdorlik summasini undirish to'g'risida notariusning ijro xati olingan kunda belgilanadi (fiksatsiya qilinadi).

Yakuniy garov qiymati quyida ko'rsatilgan jadvalga muvofiq belgilanadi:

№	Tuzatish koeffisient	YGQ*	Holat (voqelik) **
1.	BGQdan - 10%	$BGQ \times 0,90$ (yoki: $BGQ \text{ minus } BGQdan\ 10\%$)	1. Holat: XX.XX.XXXX y. sananing kelishi (kredit shartnoma sanasidan 15 kalendar kunidan keyin);
2.	BGQdan - 20%	$BGQ \times 0,80$ (yoki: $BGQ \text{ minus } BGQdan\ 20\%$)	1. Holat: XX.XX.XXXX y. sananing kelishi (kredit shartnoma bo'yicha 13 oy boshlanishi); 2. Holat: Bosib o'tgan yo'l - 20 000 km.
3.	BGQdan - 30%	$BGQ \times 0,70$ (yoki: $BGQ \text{ minus } BGQdan\ 30\%$)	1. Holat: XX.XX.XXXX y. sananing kelishi (kredit shartnoma bo'yicha 25 oy boshlanishi); 2. Holat: Bosib o'tgan yo'l - 30 000 km.
4.	BGQdan - 40%	$BGQ \times 0,60$ (yoki: $BGQ \text{ minus } BGQdan\ 40\%$)	1. Holat: XX.XX.XXXX sananing kelishi (kredit shartnoma bo'yicha 36 oy boshlanishi); 2. Holat: Bosib o'tgan yo'l - 50 000 km.
5.	BGQdan - 50%	$BGQ \times 0,50$ (yoki: $BGQ \text{ minus } BGQdan\ 50\%$)	1. Holat: XX.XX.XXXX sananing kelishi (kredit shartnoma bo'yicha 48 oy boshlanishi); 2. Holat: Bosib o'tgan yo'l - 50 000 km va undan yuqori.

** Barcha bosqichlarda tuzatish koeffitsientini (diskontni) hisoblash uchun baza sifatida faqat va faqat ushbu Dalolatnomada ko'rsatilgan Boshlang'ich garov qiymati (BGQ) olinadi. Oldingi davrlar uchun qoldiq (oraliq) qiymatdan tuzatish koeffitsientini hisoblashga yo'l qo'yilmaydi.*

***Tegishli tuzatish koeffitsientini qo'llash uchun ko'rsatilgan holatlardan birining yuzaga kelishi kifoya qiladi.*

Biz, «Orient Finans» XATB «_____» BXM boshqaruvchisi /F.I.SH./ va «Orient Finans» XATB «» BXM chakana kreditlash mutaxassisi /F.I.SH./ (**1-taraf**) hamda Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi _____ (2-taraf), Garov predmetining garov qiymati miqdori va uni tuzatish koeffitsientini qo'llagan holda diskontlash (chegirma qo'llash) shartlari bo'yicha to'liq va uzil-kesil kelishuvga erishganimizni tasdiqlaymiz.

Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi mazkur qiymat Taraflarning haqiqiy kelishuvini to'liq aks ettirishini, ushbu qiymat o'zi uchun maqbul ekanligini va kelgusida ushbu qiymat yuzasidan sud tartibida yoki boshqacha tartibda nizolashish huquqidan voz kechishini, mazkur dalolatnomani hech qanday majburlovlarisiz, o'z ixtiyori bilan imzolayotganligini tasdiqlaydi.

Taraflar garov qiymati miqdori qismida ham, uni aniqlash tartibi va mezonlari qismida ham birbirlariga nisbatan o'zaro da'volari, e'tirozlari yoki mulohazalari mavjud emasligini qayd etadilar.

1-Taraf:	2-Taraf: